

cial cooperation between government and business entities [14].

Overall, management in entrepreneurship involves the use of a variety of specific techniques and methods that provide justification and adoption of rational management decisions. The combination of these methods and techniques, spe-

cific to each business, constitutes the manager's special style and methodological apparatus.

In order to obtain maximum results, management must create decent working conditions and moral and psychological conditions in which employees would be comfortable and pleasant to work.

References:

1. Масютин С. А. «Совершенствование структуры управления предприятием» //Аудит и финансовый анализ. – 2002. - №3. – с. 18
2. Солдаткина, О. В. Экономика и управление малым бизнесом : учебное пособие / О. В. Солдаткина. — Москва; Берлин : Директ-Медиа, 2021. — 327 с.
3. Алборова, М. В. Особенности управления предприятиями малого бизнеса / М. В. Алборова. — Текст : непосредственный // Экономика, управление, финансы : материалы VII Междунар. науч. конф. (г. Краснодар, февраль 2017 г.). — Краснодар : Новация, 2017. — С. 94-97.
4. Зеткин А.С. Методологический подход к оценке инновационного потенциала проекта // Инновации. - 2015. - №6 - 37с.;
5. Курамшина К. С. Основные направления оценки экономического эффекта влияния научной инфраструктуры на развитие малых / – Москва: Бибком – 2016.
6. Бовыкин, В.И. Новый менеджмент: (управление предприятием на уровне высших стандартов; теория и практика эффективного управления). – М.: ОАО “Издательство “Экономика”, 2017. – 368 с.
7. Акьюлов Р.И. Современные методы управления развитием малого предпринимательства в российских регионах. // Экономика и управление предприятиями. – 2016. С.178-183.
8. Менеджмент малого бизнеса: Учебник/ Под ред. проф. М. М. Максимцова и проф. В. Я. Горфинкеля. — М.: Вузовский учебник, 2007. - 269 с.
9. Акимов О. Ю. «Малый и средний бизнес: эволюция понятий, рыночная среда, проблемы развития», 2011
10. Tochinova, Yu. S. Methods of cost management in small businesses / Yu. S. Tochinova // Actual problems of modern science: theory and practice: Proceedings of the International (correspondence) scientific and practical conference, Neftekamsk, May 29, 2020 /-P. 325.
11. Прыгунова М.И., Тумаков И.К. — Обзор современных цифровых практик для управления малым бизнесом // Теоретическая и прикладная экономика. – 2022. – № 4. – С. 52 - 66.
12. Хонкелдиева, Г. Ш. (2018). Развитие промышленных предприятий в Республики Узбекистан. Т.: Иқтисодиёт ва таълим.
13. Искусство управления в малом бизнесе / Елена Логинова - Москва: Синергия – 2008
14. Марипова Ш.А. Проблемы организации маркетинговой деятельности у субъектов малого бизнеса. “Prospects of development of science and education” Scientific and practical conference (September 2023), pp 182-187.



AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIDAN FOYDALANISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Yusufaliyev Olimjon Abduraxmonovich
Guliston davlat universiteti
Iqtisodiyot kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD

 https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss6/a46

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimiz iqtisodiyotida tadbirkorlik faoliyatining o'рни, tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, bu borada xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari, aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlikning ahamiyati tahlillar natijasida o'rganildi. Ma'lumotlar asosida muammo va kamchiliklar aniqlanib, ularga ilmiy asoslangan xulosa va takliflar keltirib o'tildi.

Kalit so'zlar: aholi, tadbirkorlik, rivojlanish, iqtisodiyot, bandlik, aholi farovonligi, bozor, kambag'allik, raqobat, soliq, islohot.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ПОВЫШЕНИИ БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАСЕЛЕНИЯ

Юсуфалиев Олимжон Абдурахмонович
старший преподаватель, PhD кафедры экономики
Гулистанского государственного университета

Аннотация. В данной статье анализируются роль предпринимательской деятельности в экономике нашей страны, основные направления развития предпринимательства, научные взгляды зарубежных и отечественных ученых на эту тему, Значение предпринимательства в повышении благосостояния населения. На основе данных были выявлены проблемы и недостатки, приведены научно обоснованные выводы и предложения.

Ключевые слова: население, предпринимательство, развитие, экономика, занятость, благосостояние, рынок, бедность, конкуренция, налоги, реформы.

IMPROVING THE METHODOLOGY FOR USING ENTREPRENEURIAL ACTIVITY IN IMPROVING THE WELL-BEING OF THE POPULATION

Yusufaliyev Olimjon Abdurakhmonovich
Senior teacher of Economics Department
of Gulistan state university, PhD

Annotation. In this article, the role of entrepreneurial activity in the economy of our country, the main areas of development of entrepreneurship, the scientific views of foreign and domestic scientists in this regard, the importance of entrepreneurship in improving the well-being of the population were studied as a result of analyzes. Based on the data, problems and shortcomings were identified and brought to them scientifically based conclusions and suggestions.

Keywords: population, entrepreneurship, development, economy, employment, population welfare, market, poverty, competition, tax, reform.

Kirish. O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatlarini yanada rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami yildan yilga oshib bormoqda va uning natijasi o'laroq, tadbirkorlik sohasini rivojlantirish, iqtisodiyotdagi ulushini oshirish borasidagi erishilayotgan yutuqlar ham yil sayin oshib bormoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati o'zining nisbatan kam moliyaviy resurslar talab qilishi, bozorning yangi shart-sharoitlariga tez moslashgan holda cheklangan imkoniyatlar orqali bozor talablarini tezroq qondira olish xususiyati bilan yirik biznes faoliyatiga nisbatan ustunlikka egadir. Bundan tashqari tadbirkorlik subyektlari bozor talabiga mos holda iqtisodiyot sohasini qayta yangilash uchun faoliyatlari davomida minimal resurslar iste'molini amalga oshirib, doimiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri – bandlik masalasi yechimiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [1].

Hozirda iqtisodiy o'sish va iqtisodiy taraqqiyotning asosiy, yalpi ichki mahsulotning o'sish omili bo'lib, tadbirkorlik va xo'jalik faoliyati subyektlari tomonidan shakllantiriladigan mablag'lar hisoblanadi. Shu sababdan mamlakatning iqtisodiy jihatdan o'sishini alohida tadbirkorlar va xo'jalik subyektlarining rivojlanishisiz tasavvur qilib

bo'lmaydi. "Tadbirkorlik faoliyatining tashkil etilishi darajasiga uning pirovard natijasi hisoblanuvchi tadbirkorlik va milliy daromad darajasining o'sishi bilan butun mamlakatning farovonligi bog'liqdir" degan xulosa keng tarqalgan.

Shuning bilan tadbirkorlik faoliyati shakllanishiga, uning taraqqiyotiga ko'plab omillar ta'sir etadi. Jumladan, tadbirkorlikka jamiyat mafkurasining moyilligi, ushbu faoliyat davlat va jamoat muassasalari tarafidan qo'llanilishi katta ahamiyatga ega. Shuning uchun jamiyatning ushbu turdagi faoliyatiga O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan e'tibor tobora kuchayib bormoqda va ushbu sohani yanada rivojlantirishning nazariy asoslanilishiga ehtiyoj mavjuddir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining yettita ustuvor yo'nalishidan uchinchi yo'nalishida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash nazarda tutilgan[2]. Ushbu yo'nalishning asosiy maqsadi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga qaratilganligi bilan e'tiborlidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy tadqiqot davomida maqolada qiyosiy tahlil, ma'lumotlarning statistik tahlili, aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlikning ahamiyati, uning metodologiyasi, aholini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish orqali kambag'allikni qisqartirish yo'nalishlari o'rganildi. Tadqiqot ishimizda qiyosiy tahlil va analitik tahlil yo'nalishlari orqali muammoni chuqurroq o'rganishga harakat qilingan. Muammolar ochib berilib, uning yechimi sifatida tegishli tartibda xulosa va takliflar, asosiy yo'nalishlar kelitirib o'tilgan. Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston tadbirkorlik faoliyati misol qilib olingan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Y.Lowrey o'zining asarlarida "tadbirkorlik mamlakatning iqtisodiy farovonligida muhim" deb hisoblaydi. Birinchidan, tadbirkorlik ish o'rinlarini yaratadigan va yalpi ichki mahsulotning (YaIM) umumiy qiymatiga qo'shadigan, ishlab chiqarish jarayonlarida ishtirok etish uchun ishlab chiqarish va tadbirkorlik nou-xaulariga ega yo'nalishdir. Ikkinchidan, tadbirkorlik, tovar va xizmatlarni kim uchun va qanday narxda ishlab chiqarilishi kerakligini aniqlash uchun eng samarali bozor axborot tizimini yaratadi. Uchinchidan, tadbirkorlar barqaror ishlab chiqarish muhitini yaratadi, unda tadbirkorlar yangi mahsulotlar va yangi bozorlarni yaratishda tavakkal qilishlari va doimiy texnologik taraqqiyot minimal xarajatlar bilan ta'minlanishi mumkin [3].

S.Lyubomirsky, K.Layousning tadbirkorlik borasida nazariya va tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlar kam mablag' sarf qilgan holda bozor mexanizmlarini o'rganishni boshlaydilar. Ular bozor ehtiyojlaridan kelib chiqib faoliyat olib borib, iste'molchilarning xususiyatlari (masalan, ularning motivatsiyasi va harakatlari) va iste'molchi farovonligiga ta'sirini mo'tadillashtiradi. Bundan tashqari tadbirkorlikning to'rtta vositachilik o'zgaruvchisini keltirib chiqarishini ko'rsatib beradi: ijobiy his-tuyg'ular, ijobiy fikrlar, ijobiy xatti-harakatlar va ehtiyojni qondirish. Modelni qo'llab-quvvatlovchi empirik dalillar va kelajakda aholi farovonligini ta'minlashda foydalanilishini ta'kidlaydilar [4].

S.Anah, O.S.Asogwa tadqiqotlarining umumiy maqsadi tadbirkorlikning aholi farovonligiga ta'sirini aniqlashdir. Ular Enugu davlatida ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlarga e'tibor qaratgan holda iqtisodiy o'sishni rivojlantirishga harakat qilishgan. Tadbirkorlik faoliyati Enugu davlatidagi odamlarning turmush darajasiga qanday ta'sir qilishini aniqlash va tadbirkorlik faoliyatiga ko'p soliq solishning ta'sirini tahlil qilganlar. Natijada tadbirkorlik faoliyatida soliqlar darajasining yuqoriligi aniqlangan va tadbirkorlik faoliyati bi-

lan shug'ullanish aholi farovonligiga ijobiy ta'siri aniqlanmagan, mualliflar "tadbirkorlik uchun shart-sharoit yaratilmas ekan, tadbirkorlik ham rivojlanmaydi va aholi turmush farovonligi ham ortda qolaveradi" degan xulosaga kelganlar [5].

A.Plyuxina mamlakatda aholi farovonligini ta'minlash, istiqbolli ijtimoiy loyihalar samaradorligini oshirishda ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishni ilgari sugan. Ijtimoiy tadbirkorlarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish mamlakat iqtisodiyotining turli darajalarida amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, ijtimoiy tadbirkorlar mamlakat iqtisodiyotida faqatgina aholi farovonligi uchun xizmat qiladi. Shuning uchun u ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi [6].

V.Bessarabov fikricha, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda iqtisodiy xavfsizlik darajasini baholash tadbirkorlikning rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Baholashda, agar bir xil nomdagi tarkibiy qismning asosini tashkil etadigan moliyaviy ko'rsatkichlar, qoida tariqasida, obyektiv bo'lsa, unda boshqa tarkibiy qismlarni tahlil qilish uchun subyektiv yoki sifat ko'rsatkichlarini hisoblash kerakligini aytib o'tgan. Uning tadqiqotining asosiy maqsadi tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash orqali tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi farovonligini ta'minlashning zamonaviy usullarini tahlil qilish va uning darajasini integral baholashdan iborat [7].

F.Nadjmiddinov fikricha, bozor sharoitida tadbirkorlik faoliyatining shakllarini samarali rivojlantirish faoliyati uning maqsadlari va vazifalarini oldindan belgilab beradigan vazifalarni bajarish darajasi va tegishli funksiyalarni o'rganish asosida aniqlanishi mumkin. Tadbirkorlik faoliyatining shakllarini, shu jumladan, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga e'tibor qaratadi va uni tartibga solish tizimi yuqori barqarorlikka ega xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishi va aholi farovonligini ta'minlashi mumkinligini ko'rsatib beradi [8].


A.Eraliyev: "...tadbirkorlikning kelajagi na-faqat ishbilarmonlik muhitiga, balki jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni aks ettiruvchi tadbirkorlik tafakkurining rivojlanish darajasiga ham bog'liq. Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga iqtisodiy mustaqillik, tadbirkorlar sinfi, iqtisodiy munosabatlarda bozorning ustuvorligi, tadbirkorlik kapitalini to'plash va zarur resurslardan foydalanish uchun sharoitlarning mavjudligi kiradi" [9], - deb keltiradi.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari fao-

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

liyating tashkil etilishi va ularni rivojlantirish orqali mustaqil faoliyat yurituvchi mulk egalari sinfi shakllanmoqda. Tadbirkorlik faoliyati o'zining bozor iqtisodiyoti talablariga tez moslashish imkoniyatlarining kengligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli aholi farovonligini ta'min-

lash uchun mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining ravnaq topishi natijasi sifatida mamlakat YaIMida ushbu faoliyat turining salmog'i yildan yilga ortib borayotganligini kuzatishimiz mumkin.



1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi [10]
(umumiy hajmga nisbatan %da)

1-rasm ma'lumotlari asosida aytish mumkin, 2023-yil 3-chorakda 2022-yilga nisbatan tadbirkorlikning sohalardagi ulushi sezilarli darajada o'zgaragan. Tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 0,6 %ga, sanoatdagi ulushi 0,1 %ga kamaygan va aksincha, importdagi ulushi 0,4 %ga, eksportdagi ulushi 0,5 %ga, qurilish sohasidagi ulushi 2,7 %ga o'sishni ko'rsatmoqda. Demak, tadbirkorlar ko'proq qurilish sohasida o'z faoliyatlarini olib borishni ma'qul ko'rmoqdalar.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali:


- o'rta mulkdorlar sinfi shakllanadi;
- makroiqtisodiy beqarorlik, ishsizlik va taqchilik kabi iqtisodiy muammolar barham topadi;

- sog'lom raqobatchilik muhitining yaratilishi orqali YaIMning miqdor va sifat jihatidan o'sishi kuzatiladi;

- ichki bozor zarur tovar (xizmat)lar bilan to'yinadi va ularning sifati oshadi;

- va pirovardida aholi turmush darajasining o'sishiga erishiladi.

Mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan erkinliklar, ular faoliyatini tashkil etishlari va rivojlantirishlari uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar natijasida ushbu faoliyat turining iqtisodiyotning barcha sohalarida hajmi ham salmoqli bo'lib, ammo bu tadbirkorlikning viloyatlar kesimida YaIMdagi ulushiga sezilarli darajada ta'sir etmayapti (2-rasm).



2-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hududlar kesimida YaIMdagi ulushi [11]

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish nafaqat davlat va jamoat taraqqiyotida, balki har bir insonning yuksalib borayotgan hayotiy ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyatga ega, ya'ni xizmat ko'rsatish, chakana savdo, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish kabi sohalarida ushbu faoliyat yaqqol namoyon bo'ladi. Ayni paytda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal o'sishini ta'minlash, xususiy mulkni himoya qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi ba'zi ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish, res-

publikamizda investitsiya va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish orqali xalqaro me'yorlarga to'liq javob berishini ta'minlashda o'z aksini topadi.

Mamlakatimizda yildan yilga tadbirkorlarning soni ortib bormoqda. Birgina misol tariqasida 2023-yil 3-choragida 2022-yilga nisbatan oladigan bo'lsak, 8374 ta yoki 17,1 %ga o'sish bilan yangi tadbirkorlik subyektlari faoliyat yuritayotganini kuzatishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval

Ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlari soni (iqtisodiyot tarmoqlari kesimida)[12]

Klassifikator	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	19596	22062	25438	31098	43958	48854	57228
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	1344	1556	1860	2427	2683	2886	3134
Ishlab chiqarish sanoati	42815	48053	55517	69733	83573	90936	99352
Qurilish	23536	25208	30305	37916	42905	45422	48828
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	7516	8178	8940	10189	11850	12983	14394
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	6925	8706	9826	11603	13102	13455	15397
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	1540	1908	2359	3098	3702	4246	4917
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	4547	5283	5889	7622	9886	11260	13060
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	283	269	270	329	420	434	471
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	897	863	1024	1142	1246	1292	1483
Axborot va aloqa	6681	6518	7130	8159	9877	10824	12510
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	4695	3966	3748	3657	3776	3297	3654
Tashish va saqlash	11199	12287	13636	15881	17953	18867	21469
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	16365	18037	20892	27243	32323	35261	39372
Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	66497	66865	74604	106325	139545	165460	193492
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	6066	6837	7187	7568	7884	8132	9096
Ta'lim	1250	1266	2133	3407	4484	6239	7800
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3800	4514	5477	6523	7813	9087	10313

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar negizida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va tartibga solish borasidagi mexanizmi quyidagicha izohlash mumkin:

1. Davlatning iqtisodiyotda sodir bo'layotgan jarayonlarga ta'sirini kamaytirish, ya'ni bunda davlat nazorati mexanizmlarini takomillashtirish orqali ruxsat berish tartib-taomillariga oid ayrim davlat funksiyalarini xususiy sektorga o'tkazish; davlat ishtirokidagi biznes tuzilmalarining tashkil etilishini cheklash; davlat boshqaruv organlarining ayrim funksiyalarini, shu jumladan, ularni muqobil tartibga solish turlariga almashtirish; mahalliy mahsulotlar eksport hajmini oshirish, xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, mamlakatning investitsiya va turistik jozibadorligini oshirish; ilg'or g'oya, nou-xaular yaratish va

“aqli” texnologiyalarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan iqtisodiyotning yangi modeliga bosqichma-bosqich o'tish kabi tadbirlar amalga oshiriladi. Buning natijasida respublikada eksport qiluvchi korxonalar ehtiyojidan kelib chiqqan holda xalqaro standartlarni qabul qilish, tashqi bozorga sifatli va sertifikatlangan mahsulotlarni olib chiqish maqsadida yil davomida 2 mingdan ortiq korxonalarda xalqaro standartlarga muvofiq sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish va sertifikatlashtirish nazarda tutiladi.

2. Erkin raqobat muhitini yaratish, narxlarining barqarorligi va imtiyozlarning manzilliligini ta'minlash maqsadida imtiyozlarni individual tartibda berish amaliyotidan voz kechish, ularni ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning alohida turlari uchun joriy etish, ya'ni bunda imtiyozlar berishning shartlari, mezonlarini belgilash, ular-

ning samaradorligini baholash va monitoring qilish tizimini joriy etish; imtiyozlarni muayyan moliyaviy ijtimoiy natijaga erishish sharti bilan berish; bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlarni qayta ko'rib chiqish; ishlab chiqarishda foydalani-ladigan tovarlar bo'yicha imtiyozlarni bekor qilib, maqbul boj to'lovi stavkalarini belgilash; imtiyoz-larni alohida subyektlarga emas, balki sohalar yoki tovarlar (xizmatlar, ishlar) turlariga nisbatan joriy etish nazarda tutiladi.

3. Aholi va tadbirkorlik subyektlarining bank tizimiga ishonchini kuchaytirish, banklar bilan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida samarali va o'zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini ta'minlash.

4. Soliq yukini kamaytirish va soddalashti-rish, shu asosda ishlab chiqarishni va soliqqa tor-tiladigan bazani kengaytirish, ya'ni bunda o'z ehtiyoji uchun obyektlar qurayotgan yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlariga yagona soliq to'lovini ma'lum muddatga kechiktirish huquqini berish; kichik korxonalar uchun qo'shimcha qi-yamat solig'i to'lashga o'tishni rag'batlantirish tizi-mini joriy qilish nazarda tutiladi.

5. Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvat-lash va biznes yuritish sharoitlarini yaxshilash bo'yicha quyidagilar amalga oshiriladi, ya'ni bun-da nazorat qiluvchi organlarning ayrim nazorat funksiyalarini fuqarolik jamiyati institutlari va davlat boshqaruvi organlariga o'tkazish; tadbir-korlik subyektlariga, pul mablag'larini xizmat ko'rsatuvchi banklarda inkassatsiya qilish qoida-lariga qat'iy rioya qilgan holda, tovarlarni axbo-rot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali so-tishda naqd pulda hisob-kitob qilish, shuningdek, mahsulotlarni xalqaro to'lov kartalaridan foyda-langani holda xalqaro savdo maydonlari orqali eksport qilish tizimini soddalashtirish; yuridik shaxslarga ishlab chiqarish, savdo, xizmat ko'rsa-tish, ishlarni bajarish faoliyati bilan bog'liq bo'l-gan har qanday xarajatlar, jumladan, davlat bojla-ri va yig'imlarini to'lash bilan bog'liq to'lovlarni korporativ bank kartalaridan to'lash imkoniyati nazarda tutiladi; tadbirkorlik faoliyati sohasidagi lisenziyalar va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish.

6. Tadbirkorlik va innovatsion sohadagi istiqbolli loyihalarni moliyalashtirish mexanizm-larini rivojlantirish, ya'ni bunda venchur fondlar-ning huquqiy maqomi va ularni tashkil etish tarti-bi; venchur kompaniyalar va fondlar, venchur fondlarni boshqarish bilan shug'ullanuvchi kom-paniyalar hamda innovatsion korxonalar faoliya-tini tartibga solish; venchur kompaniyalar va fondlar uchun malakali boshqaruv va ekspert kadrlarni tayyorlash va venchur loyihalarni su-

g'urtalash nazarda tutiladi. Joylardagi ijtimoiy muammolarni hal etishga oid tadbirkorlik tashab-buslarini, ayniqsa, yoshlar va ayollar tadbirkorli-gini qo'llab-quvvatlashga ustuvor ahamiyat be-rish zarur. Shu maqsadda aholi va tadbirkorlarga, mikromoliya xizmatlari va moliyaviy resurslarga, davlat xaridlariga keng yo'l ochib beriladi. Bun-day choralar orqali aholida tadbirkor bo'lishga ishtiyoq va ishonch ortadi, ular ko'proq daromad olishga intiladigan bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, kichik biznes va xusu-siy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda quyidagi-larga alohida e'tibor qaratish lozim:

birinchidan, kichik biznes subyektlari mah-sulotlarini eksportga chiqarishda logistik markaz-lar xizmatidan samarali foydalanish, ya'ni marke-ting xizmatini sifatli rivojlantirish va shu orqali jahon bozorlarida milliy mahsulotlarimiz raqo-batbardoshligini ta'minlash;

ikkinchidan, tadbirkorlarga «bir darcha» ta-moyili asosida eksportni rivojlantirish uchun dav-lat xizmatini takomillashtirish;

uchinchidan, tadbirkorlik uchun ilmiy tad-qiqot va innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga katta e'tibor qaratish lozim. Bunda davlat va xu-susiy tadbirkorlik sektorining o'zaro (korporativ) hamkorligiga asoslanish, ya'ni ilm-fan yutuqlari-dan keng va samarali foydalanish; tadbirkorlik faoliyatida yangi innovatsion texnologiyalarni qo'llash; ishlab chiqarishga eng zamonaviy texno-logiyalarini joriy etish; milliy iqtisodiyotning bar-cha tarmoq va sohalarini modernizatsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, aholi farovonligini oshirish uchun tadbirkorlik faoliyatidan foydalanish meto-dologiyasini takomillashtirish iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarni hisobga oluvchi ko'p qirrali yondashuvni o'z ichiga oladi. Ushbu kontekstda tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish uchun bir nechta strategiyalar mavjud:

Ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ya'ni moliyaviy daromadlarni ishlab chiqarishda ijti-moiy muammolarni hal qilishga qaratilgan ijti-moiy tadbirkorlikni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash. Bunga sog'liqni saqlash, ta'lim, qash-shoqlik va ekologik barqarorlik kabi muammo-larni hal qiladigan korxonalar kirishi mumkin.

Inklyuziv tadbirkorlikni rivojlantirish orqa-li kelib chiqishi turli xil bo'lgan tadbirkorlar, shu jumladan, ayollar, ozchiliklar va kam ta'minlan-gan jamoalardagi shaxslar uchun resurslar va imkoniyatlarni taqdim etish orqali inklyuzivlikni targ'ib qilish nazarda tutiladi. Bunga maqsadli qo'llab-quvvatlash dasturlari, murabbiylik va

moliyalashtirishdan foydalanish orqali erishish mumkin.

Ta'lim va mahoratni rivojlantirish yordamida shaxslarni zarur tadbirkorlik ko'nikmalariga ega bo'lgan ta'lim va ko'nikmalarni rivojlantirish dasturlariga sarmoya kiritish. Bunga nafaqat biznes ko'nikmalari, balki tanqidiy fikrlash, muam-molarni hal qilish va moslashuvchanlik ham kiradi. Tadbirkorlar uchun, ayniqsa, o'z korxonalarining dastlabki bosqichlarida bo'lganlar uchun moliyalashtirishni yaxshilash kerak. Bunga mikro-moliya dasturlarini yaratish, venchur kapital fondlarini yaratish yoki tadbirkorlarning ehtiyojlariga moslashtirilgan innovatsion moliyalashtirish modellarini ishlab chiqish kiradi.

Texnologiya va innovatsiyalarni rivojlantirish orqali tadbirkorlikni rag'batlantirishga imkon beriladi. Texnologik innovatsiyalarni rag'batlantiradigan muhitni rivojlantirish lozim. Innovatsion mahsulotlar va xizmatlarni yaratish, iqtisodiy o'sish va farovonlikni yaxshilashga olib keladigan tadqiqot va rivojlantirish tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash. Tarmoq imkoniyatlari, murabbiylik dasturlari va hamkorlik joylarini o'z ichiga olgan qo'llab-quvvatlovchi tadbirkorlik ekotizimini yaratish kerak. Bu tadbirkorlarga bir-biri bilan bog'lanish, tajriba almashish va qimmatli manbalardan foydalanishga yordam beradi.

Tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun to'siqlarni kamaytiradigan va tadbirkorlarga o'z bizneslarini boshlash va rivojlantirishni osonlashtiradigan tartibga soluvchi islohotlarni amalga oshirish lozim. Bunga litsenziyalash jarayonlarini soddalashtirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish va biznes uchun qulay muhit yaratish ham kiradi. Ekologik barqaror tadbirkorlikni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash ham tadbirkorlikni rivojlantirishda motivatsion omil bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiy rivojlanish atrof-muhitni muhofaza qilish bilan uyg'un bo'lishini ta'minlash uchun ekologik toza amaliyot va texnologiyalarni qabul qilishga ko'maklashish kerak.

Tadbirkorlik faoliyatining aholi farovonligiga ta'sirini baholash lozim. Buning uchun kuchli monitoring va baholash mexanizmlarini yaratish talab etiladi. Bu ish o'rinlarini yaratish, daromad darajasi va jamiyatni rivojlantirish kabi asosiy

ko'rsatkichlarni kuzatishni o'z ichiga oladi. Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklik farovonlikka yanada kengroq va barqaror ta'sir ko'rsatadigan tashabbuslarni yaratish uchun ikkala sektorning kuchli tomonlaridan foydalanishi mumkin.

Iqtisodiy inqiroz sharoitida tadbirkorlik faoliyatining barqarorligini oshirish strategiyasini ishlab chiqish lozim. Bu favqulodda vaziyatlar rejalarini tuzish, favqulodda vaziyatlar fondlariga kirishni ta'minlash va qiyin paytlarda qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga olishi mumkin. Dunyo bo'ylab muvaffaqiyatli tadbirkorlik modellarini o'rganish natijasida aytish mumkinki, inqirozlarining oldini olishda hamkorlik aloqalarining o'rnatilishi va bilim almashinuvini osonlashtirish. Bu amaliyotda tadbirkorlikni eksportga yo'naltirishga va ularni mahalliy kontekstga moslashtirishda yordam beradi.

Ushbu strategiyalarning samaradorligi muayyan kontekstga qarab farq qilishi mumkin, shuning uchun ularni tadbirkorlik faoliyatining turiga qarab moslashtirish jamiyat yoki mintaqaning ehtiyojlariga mos tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga imkon beradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimiz iqtisodiyotidagi mavjud rivojlanish darajasini yanada ko'tarishimiz, doimiy ravishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini takomillashtirib borishimiz uchun, bizning nazarimizda, quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni soddalashtirish uchun moliya institutlarini tashkil etish va ularning faoliyatini rivojlantirish;

rivojlanish darajasi nisbatan past hududlar uchun imtiyozlar qo'llaniladigan maxsus infratuzilmalarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;

davlat buyurtmalarining bajarilishida ushbu soha vakillarini kengroq jalb etish;

aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik bo'yicha yangi mutaxassislarini shakllantirish;

davlat tomonidan tadbirkorlarga soliq imtiyozlarini kengaytirish va hokazo.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Амонов Мехриддин Оромиддинович. Тadbirkorlik faoliyatining mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati. // JMBM. 2022. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tadbirkorlik-faoliyatining-mamlakat-iqtisodiyotidagi-a-amiyati>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-sonli.
3. Lowrey Y. Business density, entrepreneurship and economic well-being. // *Entrepreneurship and Economic Well-Being* (June 2004). 2004.
4. Lyubomirsky S., Layous K. How do simple positive activities increase well-being? // *Current directions in psychological science*. 2013. T. 22. №. 1. C. 57-62.

5. Anah S., Asogwa O. S. *Impact of entrepreneurship development on economic growth of Enugu state: A study of registered entrepreneurs in Enugu State, Nigeria.* // *International Journal of Economics, Business and Management Research.* 2017. T. 1. №. 02.

6. Плюхина Анастасия Алексеевна. *Совершенствование методики оценки деятельности социальных предприятий.* // *Российское предпринимательство.* 2016. №13. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sovershenstvovanie-metodiki-otsenki-deyatelnosti-sotsialnyh-predpriyatiy>

7. Бессарабов В.О. *Современные методы обеспечения экономической безопасности предпринимательской деятельности и интегральная оценка ее уровня.* // *Ученые записки Крымского федерального университета имени В.И. Вернадского. Экономика и управление.* 2021. Т. 7. №. 1. С. 19-35.

8. Наджмиддинов Ф.Н. *Совершенствование механизма управления развитием малых форм предпринимательской деятельности в сфере услуг в Республике Таджикистан.* // *Вестник ТГУК.* 2016. №. 2.

9. Эралиев А.А. *Повышение благосостояние населения в постпандемических условиях за счёт развития малого бизнеса и частного предпринимательства.* // *Editor coordinator.* 2022. С. 36.

10. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.*

11. <https://siat.stat.uz/reports-filed/420/line-data>

12. <https://siat.stat.uz/reports-filed/715/table-data>